

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/2 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Гайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Рахманова Мавлуда Эркин қизи СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ССРГА ХАЛҚЛАРНИ МАЖБУРИЙ КЎЧИРИШ СИЁСАТИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	9-16
Икромжонов Акмалжон Махмуджонович ФАХРУДДИН ЎЗЖАНДИЙ ЯШАГАН ДАВРДА МОВАРОУННАҲР ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ВАЗИЯТ ВА ИЛМ ФАН РИВОЖИ.....	17-25
Холдоров Зоҳиджон Валижон ўғли ТУРКИСТОН ЛЕГИОНИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИДАН.....	26-34
Хамидова Дилфуза Улуғбек қизи НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЖОДКОРЛАР НИГОҲИДА.....	34-41
Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli SULTON RAHMONOV – SAYYORANING ENG KUCHLI ODAMI.....	42-49
Махмудов Махмуд Авазович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ ШАРОИТИДА ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ТАБАҚАЛАШУВИ.....	50-58
Mamatov Bektosh Tolibjon o'g'li YALANGTO'SH VANODIR VA ASHTARXONIY HUKMDORLAR.....	59-66

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Muminova Elnoraxon Abdukarimovna “YASHIL” IQTISODIYOTGA O'TISHNING HORIJY TAJRIBALARI.....	66-75
Файзуллоев Мирсаид Шухратович СОЛИҚ НАЗОРАТИ ТИЗИМИДА КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	76-85
Кахарова Нилуфар Эркинжоновна ОКР МЕТОДОЛОГИЯСИ ХАҚИДА ТУШУНЧА, МАҚСАДИ, АФЗАЛЛИГИ, ЖАРАЁНДАН КУТИЛАДИГАН НАТИЖАЛАР.....	86-91
Насруллоев Ҳаётжон Хабибуллоевич СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ СОЛИҚ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....	92-99
Rahmonov Mirvoxid Rajabovich HUDUDNING INVESTISION JOZIBADORLIGI OMILLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	100-107
Насруллоев Ҳикматулло Хабибуллоевич ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ УЧУН ЗАМОНАВИЙ РАҚАМЛИ ЕЧИМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	108-115
Тоштемиров Шохруҳ Тошпўлатович ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ КАПИТАЛ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИ.....	116-120

Насимов Равшанжон Азимович МАМЛАКАТИМИЗДА СОЛИҚ ЮКИНИНГ СОЛИҚ ТЎЛОВЧИЛАР ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	121-130
Nabieva Nilufar Muratovna MARKETING AUDIT AND ITS IMPACT ON IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF THE COMPANY.....	131-139
Отамуродов Нуриддин Нажмиддинович КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ COVID-19 ИНҚИРОЗ ДАВРИДА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СОЛИҚҚА ТОРТИШ МАСАЛАЛАРИ	140-148
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li TO'G'RIDAN – TO'G'RI HORIJY INVESTITISYALARNI JALB QILISHDA MAMLUKAT XATARLARINI KAMAYTIRISH.....	149-155
Yusupov Farruxbek Farxodovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	156-162
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna KICHIK BIZNES KORXONALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	163-172
Зиёдинова Нилуфар Зариф қизи ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ	173-179
Насимджанов Юнусжон Зоҳидович МАМЛАКАТИМИЗ ҲУДУДЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ ЕР СОЛИҒИ МАЪМУРЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	180-187
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
Ҳакимов Акмалжон Мирзағаниевич ЦИВИЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ГНОСЕОЛОГИК МОҲИЯТИ	188-192
Холмирзаев Нодиржон Низомжонович УРБАНИЗАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	193-198
Voboqulov Abror Abdug'ani o'g'li “OPEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE GPT” TIL MODELINING FALSAFIY Tahlili	199-204
Ялгашев Бунёд Махмудович САМАРҚАНД ВОҲАСИ ЭТНИК ГУРУҲЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЛАРНИНГ ЯШАШ ТАРЗИ	205-213
Safarov Maqsudali ABU BAKR AR-ROZIYNING “TIBBI RUHONIY” (RUH TIBBIYOTI) ASARIDA G‘AZABNI VA INSONNING O‘Z KAMCHILLIKLARINI BARTARAF QILISH HAQIDA MULOHAZALAR	214-219
Сохибова Лола Жонибоевна ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ – МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ	220-224

Адашова Махсума Махмудбоевна
ИМОМ АБУ МАНСУР МОТУРИДИЙ ВА МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ – ДУНЁ
ОЛИМЛАРИ НИГОҲИДА.....225-231

Mukhammediyarova Akhmaral
PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF NOOSPHERIC DEVELOPMENT IN THE
ECOLOGICAL AND GLOBAL SECURITY SYSTEM.....232-239

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tilovov Ozod, Isoqulova Gulxon
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SONLARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING RAMZIY
MA‘NOLARI.....240-245

Surmilova Elena
GENDER STUDIES IN LINGUISTICS AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LANGUAGE
TEACHING246-252

Олимова Дилафрузхон Бахтиёржон қизи
ТИЛШУНОСЛИҚДА БАҲО КАТЕГОРИЯСИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ253-257

Djurayev Dilshod Mamadiyarovich, Radjabova Madinabonu Raimovna
XITOIY TILI GRAMMATIKASIDAGI “NATIJA TO‘LIQLOVCHISI (结果补语)”258-262

Azzamov Yusufjon Radjaboy o‘g‘li, Jo‘rayeva Xayriniso Shavkat qizi
EKOJURNALISTIKANING QO‘LLANILISH KATEGORIYALARI263-268

Fillipova Olga Igorevna
CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES AS A CATEGORY OF REDUNDANCY.....269-278

Ismoilova Dilorom Rustamjon kizi
LEXICAL UNITS OF THE SEMANTIC FIELD “MURDER”279-285

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Ильясов Баходир Ильясович
ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISHNING TASHKILY-HUQUQIY MEKANIZMI VA
UNING RIVOJLANISH YO‘LLARI286-293

Чориева Хуршидабону Хуррам қизи
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИНГ
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ИШТИРОКИ294-299

Хаётов Анвар Хусанович
ХАЛҚАРО ОЛИМПИА ҚЎМИТАСИНИНГ МУХТОР МАҚОМИ ВА ТУРЛИ ҲУҚУҚ
СУБЪЕКТЛАРИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИ300-307

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Журабекова Хабиба Мадаминовна
РЕЧЕВАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ308-315

Tursunova Aziza Xoshimovna WEB TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BILIMNI NAZORAT QILUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR YARATISH USULLARI	316-321
Oblanazarov Faxriddin Asadovich FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA'LIM VA MASHG'ULOTNING ASOSIY QONUN- QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH	322-329
Isroilova Dildora Muxtarovna, Solijonova Dildora Ulugbekovna IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASINI O'QITISHDA LINGVOMADANIY OMILLARNING O'RNI	330-335
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li MAKTAB O'QUVCHILARI HUQUQIY TA'LIM – TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARINING PEDAGOGIK TAHLILI	336-342
Jurayev Bobomurod Tojiyevich SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI	343-350

07.00.00-Тарих фанлари

Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Tarix instituti,
stajyor tadqiqotchi

SULTON RAXMONOV – SAYYORANING ENG KUCHLI ODAMI

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston SSR, Qoraqalpog'iston ASSRda tug'ilgan, og'ir atletika bo'yicha jahon chempioni, olimpiya chempioni, yevropa chempioni Sulton Saburovich Raxmonov haqida bo'lib, u oilasi bilan To'rtko'ldan Ukrainaning Dnepropetrovsk shahriga ko'chib o'tganligi va u yerda og'ir atletika bo'yicha sport faoliyatini boshlaganligi, biroz vaqt o'tgach mashhur murabbiy Eduard Pavlovich Brovko qo'l ostida shug'ullanganligi va ko'plab sovrinlarni (evropa, jahon, olimpiya chempioni) qo'lga kiritganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sulton Raxmonov, Dnepropetrovsk, Eduard Brovko, Baltika kubogi, Las-Vegas, Tokio, Gretsiya (Saloniki), Moskva-1980, Yurgen Xoyzer, Vasiliy Alekseyev, "Ginnes" rekord, MAVETIS, Yavornitskiy prospekti, Yuriy Lujkov, "Birdamlik" jamg'armasi, Stiven Sigal, T.Igor, Aleksandr Tarkin, Vladimir Nikolich, Aleksandr Peterimov.

Нагашбоев Казбек Бозорбой ули
Институт истории Академии наук
Республики Узбекистан,
стажер-исследователь

SULTAN RAXMANOV - САМЫЙ СИЛНЫЙ ЧЕЛОВЕК ПЛАНЕТЫ

Аннотация. Эта статья про чемпиона европы, мира и Олимпиады по тяжелому атлетике Султана Рахманова, который родился в Каракалпакстанской АССР при Узбекистанской ССР, предоставлено информация о переезд Султана с семьей из Турткула на Днепропетровск (Украина) и о начале спортивной карьеру, о занятости после нескольких времен под руководством известного тренера по имени Эдуарда Павловича Бровко и о выигрыше много призов (чемпион европы, мира и Олимпиады).

Ключевые слова: Султан Рахманов, Днепропетровск, Эдуард Бровко, кубок Балтики, Лас-Вегас, Токио, Греция (Салоники), Москва-1980, Юрген Хойзер, Василий Алексеев, "Гиннес" рекорд, MAVETIS, проспект Яворницкого, Юрий Лужков, фонд по имени "Солидарность", Стивен Сигал, Т.Игорь, Александр Таркин, Владимир Николич, Александр Петеримов.

Nagashboyev Kazbek Bozorboy uli
The Institute of History, Academy of
the Sciences of Uzbekistan,
Intern Researcher

SULTON RAKHMONOV - THE STRONGEST HUMAN OF THE PLANET

Annotation. This article is about Sultan Rakhmanov, who was born in Karakalpakstan ASSR of Uzbekistan SSR, in the article had provided information Sultan's moving over with family from Turtkul to

Dnepropetrovsk(Ukraine) and starting sport career in weightlifting, after some time his practising under the guidance of a famous coach – Eduard Pavlovich Brovko and achieving many prizes.

Key words: Sultan Rakhmanov, Dnepropetrovsk, Eduard Brovko, Cup of Baltica, Las-Vegas, Tokio, Greece(Saloniki), Moskow-1980, Jurgen Hoyzer, Vasili Alekseev, “Ginnes” record, MAVETIS, Javornitsky prospect, Yuri Lujkov, fond name after “Solidarity”, Stiven Sigal, T.Igor, Alexandr Tarkin, Vladimir Nikolic, Alexandr Peterimov.

DOI: <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N05>

Sulton Saburovich Raxmonov – 1950-yil 6-iyulda, O‘zbekiston SSR tarkibidagi Qoraqalpog‘iston ASSRning To‘rtko‘l tumanida tug‘ilgan. Oilada otasi, onasi, 4 ta aka-ukalari : Rustam, Azim, Tair, Raxim va 1 ta singlisi: Zuxra bo‘lgan. Otasi – Sabur Raxmonov, Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l tumanida tug‘ilgan, kasbi - harbiy xizmatchi bo‘lgan, vafotidan so‘ng O‘zbekistonga ko‘milgan. Onasi – Tatyana Vasilevna Kovalenko-Raxmanova asli kelib chiqishi Ukrainalik bo‘lgan(1920-1986), Dnepropetrovskning Sursko-Litovskiy qabristoniga ko‘milgan. Ayoli – Galina Fedorovna Raxmonova, Sport faxriylari va nogironlari Xalqaro assotsiatsiyasi boshqaruvchisi(1967 yildan 2003 yilgacha)[1] bo‘lgan. Qizi – Tatyana Sultanovna Raxmanova (1968y.). O‘g‘li – Tair Sultanovich Raxmanov (1973y.) - 2010 yil holati bo‘yicha Dnepropetrovskda avtobus xaydovchisi[2]. 1966-yil 9-sinfni tamomlagach, oilasi bilan Dnepropetrovskga ko‘chib o‘tadi. U yerda Sulton jismoniy tarbiya texnikumiga[3] kirgan hamda «Avangard» (Dnepropetrovsk) klubida tayyorlangan. Rustam ismli akasi bilan sport seksiyalarida shug‘ullangan.

Professional sport faoliyatiga qaraydigan bo‘lsak, Sulton Raxmonov – Ivan Grigorevich qo‘l ostida shug‘ullangan, keyinroq Eduard Pavlovich Brovko(SSSRda xizmat ko‘rsatgan sport ustasi, SSSR va Ukrainada xizmat ko‘rsatgan murabbiy) uning murabbiyiga aylangan. Brovko bilan u o‘zining barcha yutuqlariga erishgan.

Sulton Saburovich Raxmonovning bo‘yi 188 sm, vazni 145 kg bo‘lgan[4]. Yoshligida jarohat olgan bo‘lib, uning asoratida bir oyog‘i ikkinchisiga nisbatan kaltaroq bo‘lib qolgan[5]. Shunga qaramay, u juda ko‘plab musobaqalarda g‘olib bo‘lgan. Jumladan, 1976 va 1978-yilda Baltika kubogi g‘olibi bo‘lgan. 1976-yilda SSSRdagi ikki rekordni yangilagan: Umumittifoq birinchiligida va Baltika kubogida – 190 kg og‘irlikni ko‘targan. Jahon Yulduzlari kubogi(Las-Vegas – 1978) va Og‘ir atletikachilar kubogi(Tokio – 1979) chempioni bo‘lgan. 1979-yilda jahon chempioni bo‘lgan.

Bundan tashqari, XXII Olimpiya o‘yinlarida (1980, Moskva) 110 kgdan yuqori vazn toifasida oltin medalga sazovor bo‘lgan. Jahon chempionatlarida 110 kgdan yuqori vazn toifasi bo‘yicha – 1978-yil Gettisbergda kumush, va nihoyat, 1979-yil Gretsiyaning Saloniki shahrida birinchi marta jahon chempioni bo‘lgan Sulton - 2 ta ko‘tarish turi bo‘yicha jami 430 kg og‘irlikni ko‘tarib, ikkinchi o‘rinni olgan GDRlik Jurgen Xoyzerni 10 kg ortda qoldirgan. Shuni aytish kerakki, bu musobaqada SSSR sport yulduzi V.Alekseyev ishtirokni erta yakunlashiga to‘g‘ri kelgan. 1980-yil Moskvadagi Olimpiyada[6]da S.Saburovichga sovet mashhur og‘ir atletikachisi Vasiliy Alekseyevnikiga o‘xshash natijalarga ega bo‘lgan Aslanbek Yenaldiyev bilan raqobatlashishiga to‘g‘ri kelgan.

1980 yilgi Moskvadagi Olimpiada oldidan, Sulton bir necha yil oldin Dneprodzerjinskda yashagan va shug‘ullangan. “Izmaylovo” universal sport kompleksida 20-30 aprelda bo‘lib o‘tgan og‘ir atletikachilarning Olimpiya turnirida 18 ta jahon rekordi qayd etildi. Superog‘ir vazn bo‘yicha dastlab 12 ta shtangist ro‘yxatga kiritilgan, uning ichida ikki karra Olimpiya

championi Vasiliy Alekseyevning ham muvaffaqiyatli ishtirok etishi kutilgan edi. U ikki yil davomida turnirlarda ishtirok etmagan bo'lib, 1980-yilgi Olimpiada Moskvada o'tishi munosabati bilan, u yana ishtirok etishga qaror qiladi. Lekin faxriy shtangist, 2 karra Olimpiya chempioni uchun bu turnir omadsiz o'tib, ishtirokini erta yakunlagan. Biroq Sulton Raxmonovning mazkur Olimpiyadada oltin medalni qo'lga kiritishi, V.Alekseyevning muvaffaqiyatsizligini unutishda muhim o'rin tutgan. Bu g'alabasi bilan Sulton SSSR termasi natijalarini mustahkamlagan, shu bilan birga, Dneprodzerjinsklik olimpiya chempioni bo'lgan "Ikkinchi sportchi" (baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Olimpiya chempioni Anatoliy Tkachukdan keyin)ga aylangan va Dneprodzerjinsk sporti tarixiga kirgan. Sulton - dast ko'tarishda 195 kg, siltab ko'tarishda 245 kg[7], umumiy hisobda 440 kg natijani qayd etgan va GDRlik Yurgen Xoyzerni va polyak millatiga mansub Tadeush Rutkovskiyni 30 kg[8] ortda qoldirgan. Raxmonov Moskvadagi Olimpiyadada dast ko'tarishda Olimpiya rekordini, siltab ko'tarishda o'zining shaxsiy rekordini yangilagan.

Olimpiyadadan tashqari, Yevropa chempionatlarida ham sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchimiz, 1980-yil Belgradda o'tgan chempionatda 110 kgdan yuqori vazn toifasi bo'yicha oltin medal egasi bo'lgan.

Raxmonov 1980-yilgi Olimpiyani quyidagicha: "Moskvadagi natijam uchun Georgievskiy zalida Qizil Mehnat ko'krak nishoni ordeni bilan, Kiyev shahrining Oktyabr zalida - Oliy Sovet Prezidiumi Faxriy yorlig'i bilan taqdirlashgan. G'oliblik uchun berilgan - 3655 rubl miqdoridagi mukofot puli - uygacha "yetib bormagan". Men Toshkentlik do'stlarim bilan Moskva restoranlaridan birida sarflab yuborganman",-deya xotirlagan.

Bundan tashqari, Raxmonov hayotlik davrida - Qizil Mehnat ko'krak nishoni, Moskvaning 850 yillik bayramida ishtiroki uchun berilgan faxriy diplom va 1980 yil Olimpiya chempioni bo'lganligi uchun Kiyevda Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan Faxriy yorliq kabi ko'pgina faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

Sulton Raxmonov "Ginnes Rekordlar" kitobiga - sayyoramizning eng kuchli odami sifatida kirgan. Jami 14 ta milliy rekordlarni qayd etgan bo'lib, undan 2 tasi jahon miqyosida va 5 tasi umumittifoq miqyosidadir.

Sir emaski, katta sportdan ketish ko'pincha, sport yulduzlari uchun fojiaga aylangan. Sulton Raxmonov esa sport maydonidagi ishtirokini tugatgach, o'zini yo'qotib qo'ymadi, oilasidan ajralmadi, tanazzulga uchramadi. U, po'lat irodaga ega bo'lib, oddiy hayotda ham o'z o'rnini topishni uddalagan. Sport karerasini tugatgandan keyin jamoat arbobiga aylanib, 2000-yilda MAVETIS(Sport faxriylari va nogironlari Xalqaro assotsiatsiyasi)ni tashkil etgan va assotsiatsiya prezidenti bo'lib faoliyat yuritgan. Katta sportdan ketgan va davlat tomonidan o'z holicha qarovsiz qoldirilgan, baxtsiz sport faxriylarini o'z oldiga tortib, faol yordam bera boshlagan.

Sportchi nafaqat sportni yakunlagach, qiyin ahvolga tushib qolganlarga, shu bilan birgalikda yosh sportchilarga ham yelkadosh bo'lishni unutmagan: sport klublari uchun sport inventarlarini xarid qilgan, taklif va maslahatlarini bergan. Uning Karl Marks prospektidagi ofisi hamma uchun ochiq bo'lgan: bu yerga har kuni yordam yoki maslahat so'rab o'nlab fuqaro kelgan. Sulton Raxmonov ularning xech birini e'tiborsiz qoldirmagan.

2000-yil Sulton Raxmonov o'zining 50 yillik yubileyini Dnepropetrovskdagi «Metallurg» stadionida nishonlashga qaror qilgan va buning uchun xatto "Djip" rusumli avtomashinasini sotishiga ham to'g'ri kelgan. Yubileyda, o'z vatandoshlariga surpriz qilish maqsadida, Aykido

Federatsiyasi faxriy prezidenti, mashhur amerikalik Stiven Sigalni taklif etish maqsadida xat jo'natgan. Gollivud yulduzi o'z javobida: «Men Dnepropetrovskga borishga roziman, faqat 300 ming dollar gonorar evaziga»,- deb yozgan.

Sulton buni hazilomuz tarzda qabul qilib: «Yo'q bo'lsa, yo'q. Lekin, men albatta Sigal o'rniga mos o'rindosh topaman...», -deya o'rindosh izlashga tushgan. Aynan kim ekanligini – u oxirgi soniyalargacha sir tutgan. Va keyin «Metallurg» stadionida, o'zining tug'ilgan kunini nishonlash davomida, Raxmonov baland bo'lmagan ovozda: «Mana mashhur Stiven Sigalning o'rniga men chaqirgan o'rindoshi...», - deydi va shu chog'da yashil maydonga 2 ta markaziy osiyoning jangari qo'chqorlari tushirilgan, qaysiki ular shu zahoti shox tirashni boshlagan. Bu holatni guvohi bo'lgan odamlar kulgudan o'zini to'xtata olmagan. Bu kabi ekzotik olishuvni ko'rmagan tomoshabinlar esa, hayratdan yoqa ushlaganlar.

Sportchiga u yashaydigan prospektidagi yurtdoshlarining unga bo'lgan e'tibori xush yoqgan, ko'plab qadimdan bu yerda yashab kelayotganlar uni tanigan, borib salomlashgan va dastxat so'ragan. Murabbiylar ham u yerda to'xtab, qo'l siqib ko'rishgan, zamonaviy sport haqida suhbatlashgan va xayrlashib yo'lida davom etgan. Gaplarga qaraganda, uning K.Marks prospektidagi garajida tez-tez kompaniyalar uyushtirilgan. Aytishlaricha, Sultan ajoyib o'zbek palovini tayyorlagan.

Sultan Saburovich Raxmanov bilan uchrashuvlar, do'stlik va birga olib borilgan mashg'ulot bo'yicha hozirgi Kamenskiy shahri sportchi va murabbiylari ko'plab fikr bildirganlar. Jumladan, og'ir atletika bo'yicha murabbiy Aleksandr Tarkin chempion Sulton haqida: "Ilk bor men, Raxmonov bilan "Dzerjinka" sport klubida 70-yillarda ko'rishganman. Sultan Dneprodzerjinskga sport ustasi bo'lib kelgan. Yuqori darajadagi musobaqalarga uni Eduard Pavlovich Brovko olib chiqqan bo'lib, hafta bir necha bor "Dzerjinka"ga kelgan va eski zalda u bilan mashg'ulot olib borgan. Aytgancha, Eduard Pavlovich, Rovno shahridagi Ukraina birinchiligiga bora olmagan, u yerda Sultan ishtirok etgan va xalqaro toifadagi sport ustasi unvoni bilan taqdirlangan. U bilan borish menga nasib etgan. Men o'sha paytlar "Dzerjinka"da murabbiy edim. Taxminimcha, bu 1974-yil bo'lgan. O'shanda Sultan dast ko'tarishda 160 kg, siltab ko'tarishda 230 kg og'irlikni ko'targan.

Raxmanov Dnepropetrovskga bir necha sabablar bilan ketgan. Biz uning uchun garaj qilishga yordam berayotgandik. Uni ustini yopish uchun avtokran kutayotgandik. Lekin u kelavermadi. Shunda Raxmonov kranni olib borishni va'da qilgan - "Dzerjinka" sport klubi direktoriga telefon qilgan. A.Zubiritskiy uning bu iltimosi esidan chiqqanligini aytgan. Shundan so'ng u ketadi. Uning Dnepropetrovskga ketishiga DMZ sexi ishchilari bilan salbiy munosabatlari ham sabab bo'lgan. Ishchi erkaklar, Raxmonovni o'z ish joyiga kelmay turib pul olyapti,- deya e'tiroz bildira boshlagan. Men sexga borib, odamlarning klubga kelib Sultanning qanchalik sport bilan qattiq shug'ullanayotganligini kuzatishlarini taklif qilganman. Ba'zilari buni tushungan holda yondashgan. Biroq, ularning ichida meni qo'pol kutib olganlari ham bo'lgan. Raxmonov mag'rur inson edi, shuning uchun ishchilarning bunday munosabati uni dilini og'ritgan.", - deya xotirlagan.

Bundan tashqari yarim o'rta vazn bo'yicha sport ustasi Vladimir Nikolich og'ir atletikachi Sultan xususida: "Sultanning onasi Tatyana Kovalenko Dnepr-Kamenka qishlog'idan bo'lgan(Dnepropetrovsk viloyati, Yuqoridnepr tumani). Otasi Qoraqalpog'iston ASSR(O'zbekiston SSR)lik bo'lgan. Sultan Markaziy Osiyoda tug'ilgan, uni bu yerga boks bilan shug'ullanuvchi katta akasining Ona vataniga kelishi sabab bo'lgan. U ham hali bolalik

chog'larida birmuncha boks bilan shug'ullangan. Bir kuni Vladimir Stepanovich Ustich plyajda, Sultonni ko'rib qolgan va og'ir atletika bilan shug'ullanishni taklif etgan. Sultan dastlab, boks bilan shug'ullanayotganini aytib, bunga qarshi bo'lgan. Lekin murabbiy bari bir o'z so'zida turib olgan. Bir necha yil davomida shtanga mashg'ulotlaridan so'ng Raxmonovga muxlislik qilib, pul tikish ko'paya borgan. Va u Eduard Pavlovich Brovko bilan shug'ullanishni boshlagan. Bungacha u oila qurgan. Oilasini uy bilan ta'minlashi, o'zi esa mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratishi uchun, viloyat sport komiteti Sultonga, Dneprodzerjinskga ko'chib borishni va Dnepr metallurgiya zavodiga ishga joylashishni taklif qilgan (o'sha paytlarda Sovet Ittifoqida professional sport tan olinmagan va deyarli barcha sportchilar qayergadir ishga kirgan, - muallif misoli). 1973-yil Raxmonov Dneprodzerjinskda, Mir ko'chasidagi №21 uyni qabul qilib olgan. Keyingi yil esa biz u bilan Kiyev jismoniy tarbiya institutiga hujjat topshirganmiz. U o'shandayoq SSSR Olimpiya terma jamoasi a'zosiga aylanib, stipendiya olgan. Institutga barcha parametrlar bo'yicha o'tishga muvaffaq bo'lgan. Afsuski, men kira olmaganman. Biz o'sha paytlarda "Avangard" BST sharafini himoya qilgan holda ishtirok etganmiz. 1980-yilda esa, u Dnepropetrovsk davlat jismoniy tarbiya va sport institutini tamomlagan.

Sultan "Dzerjinka"da o'z usuli bo'yicha, individual ishlab chiqilgan reja bo'yicha shug'ullangan bo'lib, Dnepropetrovskdan E.Brovko haftada bir necha bor kelib turgan. 1980 yil Moskvadagi Olimpiya o'yinlari oldidan Raxmonov yashash uchun viloyat markaziga ko'chib kelgan. Mazkur Olimpiadadagi Raxmanovning ajoyib chiqishidan so'ng, nemislar unga "Djip" sovg'a qilgan, raqam yoziladigan joyga "SULTON", - deya yozib qo'yilgan. Bu sovg'aga aloqador bir juda qiziq voqea bo'lgan. Partiyaning yuqori lavozimdagi amaldorlari Sultondan mashinadagi uning ismi yozilgan yozuvni, oddiy raqamga almashtirishni uzoq vaqt so'rashgan. Yana bir shunday voqea ham bo'lgan bo'lib, Raxmonov qaysidir musobaqada g'olib chiqqan. Shunda nemislar uning tana parametr o'lchamlarini olgan. Bir oz vaqtlar o'tib, unga sport kostyumi jo'natmasi kelgan. Forma shunchalik puxta tikilgan bo'lib, birorta ham kamchiligi bo'lmagan. Lekin Sultonda bularga qaramay, ortiqcha vazn yig'ilgan. Biz nemis tikuvchilari san'atidan hayratda qolganmiz. Aytish kerakki, biznikilardan ko'ra, xorijlik sportchilar va oddiy odamlar tomonidan unga katta e'tibor va yordam berilgan. Oxirgi marta men Sulton Saburovich bilan 1996-yili Dneprodzerjinskda shtangistlar o'rtasida, unga bag'ishlanib ilk bor o'tkazilgan "Dnepr viloyati qahramonlari" turnirida ko'rishganman. Bu musobaqa tashkilotchisi bo'lgan Aleksey Yefimovich Peterimov, o'shanda juda ko'plab mashhur og'ir atletikachi va murabbiylarni taklif qilgan. Men o'shanda mehmon sifatida qatnashganman. Ishtirokchi sifatida qatnasha olmaganman, chunki sog'lig'imni xavf ostiga qo'yishdan qo'rqqanman. Chunki men ikkala qo'limdan ham jarohat olgan edim.", - deya fikr bildirgan.

Og'ir atletika bo'yicha murabbiy Aleksey Peterimov esa Sultan haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Men 1981-yil Novosibirskda viloyat bosh murabbiyi sifatida Sovet Ittifoqi chempionatini o'tkazayotganimda Sulton Raxmonov bilan tanishganman. KPSS Dnepropetrovsk shahar komiteti birinchi sekretari Vladimir Oshko boshchiligida 7 ta delegatsiya musobaqaga bir kun qolganda yetib kelgan va "Ob" mehmonxonasining barcha xonalari band bo'lgan. Mehmonxona administratori shunda ularni mening oldimga jo'natgan. Yevgeniy Brovko, Zinoviy Arxangorodskiy, Sulton Raxmonov va yana bir necha odamlar, mening ikki xonali lyuks nomeringa joylashishiga to'g'ri kelgan. Raxmonov o'shanda musobaqada g'olib chiqqan. Raxmanov Dneprodzerjinskka ko'chib o'tgandan so'ng, biz u bilan viloyat chempionatida uchrashganmiz. Moskvadan bir kupeda ketganmiz. Bayram

uyushtirganmiz va Sulton biz bilan birga “Oy, moroz, moroz” qo‘shig‘ini kuylagan. 1996-yilda esa uning sharafiga men Dneprodzerjinskda “Dnepr viloyati qahramonlari” turnirini o‘tkazganman. O‘shanda Ukrainaning 9 viloyatidan eng ko‘p ishtirokchi qatnashgan (taxminan 200 ta,- muallif aytishi bo‘yicha). Bu musobaqa hozirgacha muntazam o‘tkazilib kelinmoqda va mashhur shtangist va murabbiylar tashrif buyurmoqda. Keyinchalik, biz bir-birimiznikiga mehmonga borib turganmiz. Bir kuni Sulton xotini va o‘g‘li bilan menikida mehmonda bo‘lgan. U ochiq havoda, “Ximik” DK oldida o‘tkazilgan musobaqaga ham kelgan. Musobaqadan so‘ng “Svoyak” kafesidagi banketda birga o‘tirganmiz.”

Samimiy o‘zbek va kamtar ukrain farzandi bo‘lgan Sulton Raxmonov musulmon bo‘lib, butun qalbi bilan ukraina ashulasini, ukraina poeziyasini, ukraina raqslarini yaxshi ko‘rgan... Ukraina borshini va murabbosini palov bilan bir xil yashxi ko‘rgan. Tabiatan mexribon bo‘lgan Sulton, terma jamoadagi sherigi Leonid Taranenkonig og‘ir damlarida, ayniqsa, omadsiz operatsiyadan keyin unda «sepsis» boshlanib, vaziyat hayot-mamot darajisiga yetganda, butun Moskva bo‘ylab zarur defitsit dorilarni qidirib topgan. Leonidning o‘zi unga hayot qarz ekanligini ta’kidlagan. Sulton Raxmonov – shubhasiz sovet sporti hamda Dnepropetrovsk tarixining muhim shaxsiyatidir. U haqida qanday-qanday mish-mishlar yurmagan! Ularning ichida ko‘p ovoza bo‘lgan bir voqea xususida Dnepropetrovskning afsonaviy “reketiri” Matrosning sheriklaridan biri bo‘lgan, qamoqda 20 yildan ziyod o‘tirgan - T.Igorning aytishicha, bir kuni Amurlik bo‘lgan yigitlar u bilan birga viloyatning boshqa bir kriminal jihatdan kam bo‘lmagan markazi – Slobodkaga bir janjalni hal etgani kelgan.

Taxminlarga ko‘ra, Amurliklar bahaybat Sultonni, agar Slobodkaliklar bilan janjalni yaxshi hal eta olinmasa, “muhim argument” sifatida foydalanish uchun o‘zlari bilan olib kelgan. Chempion, og‘ir atletikachi sifatida butun dunyoga mashhur bo‘lgan Sultonning o‘zi uni qayerga boshlab borishayotganini bilmagan.

Voqea bunday bo‘lgan: “Yigitlar Artyom ko‘chasi(hozirda “Sechev miltiqchilari” nomiga o‘zgartirilgan)dagi lyuks klassdagi “Astoriya” restoranining pivo-bariga kelgan, ular bilan Sulton ham ichkariga kirgan. Barda Sultonning yangi do‘stlari u yerdagi mahalliy yigitlar bilan nimadir to‘g‘risida gaplashib, keyin Sultonning o‘zini qoldirib ketganlar. Raxmonov Slobodkalik yigitlar bilan 2-3 qadah pivo ichib, u-bu narsalar to‘g‘risida suxbatlashgach, ketishni xohlaydi, to‘satdan, kimdir yonidan o‘tayotib, bilmasdanmi yoki atayinmi unga tegadi.

Sportchi janjal chiqarishni istamagan, lekin “huquqbuzar”lar buni aniq xohlagan. Janjalni kutgan mahalliy mafiya “banket bo‘lmasligini” tushungach, ular sportchi mehmonni ko‘chaga olib chiqqan va taxta bilan boshiga urgan, boshqachasiga bu gigantni ag‘darishni ilojini topa olmagan.”

Aytishlaricha, bu voqeadan keyin Amurliklar Slobodkaga boshqa bormagan. Bu qanchalik rost yoki yolg‘on ekanligini – hozir kimdan ham so‘raysan? Tajribali jinoyatchi T.Igor vafot etgan. Raxmonovning o‘zi hayoti davomida bu voqea haqida gapirishni yoqtirmagan.

Sportchining o‘limidan sal oldinroq bir voqea bo‘lib o‘tgan. “Metallurg” stadioni(uning o‘rnida hozir “Dnepr Arena” joylashgan)dagi tantanali nishonlangan Sultan Saburovichning 50 yillik yubileyidan uch yil o‘tib, bir mashhur murabbiy V.Aleksandr o‘z o‘quvchisi bilan Sulton istiqomat qiladigan hozirgi Yavornitskiy prospekti bo‘ylab sayr qilib yurgan. O‘sha may kunlari juda jazirama edi. Prospektda ular – o‘z uyidan uzoq bo‘lmagan joyda turib, xalqni kuzatishni yaxshi ko‘radigan mashhur og‘ir atletikachi - Sultonni uchratgan. Murabbiy V.Aleksandr va uning o‘quvchisi og‘ir atletikachi bilan salomlashib, biroz suhbat qurgach ozgina pivo ichishga

qaror qilgan. Ular “Riba” nomli do‘konga kirib, pivo va quritilgan baliq sotib olgan. Dengiz bo‘yida pivo ichib, baliq yeganlar.

Umrining oxirgi yillarida Sulton qattiq og‘rib qoladi, ortiqcha vazn(200 kgga yaqin)ga ega bo‘lib, deyarli yurmaydi[9].

Sulton Raxmonov 2003-yil 5-may kuni yurak xuruji bilan Dnepropetrovskda vafot etgan. Qabri Dnepropetrovskning Sursko-Litovskiy qabristonidagi onasining qabri yoniga ko‘milgan. Qabrtoshiga vafot etgan vaqti yozilmagan, biroq tug‘ilgan vaqti va quyidagi epitafiya:«Meni o‘ldi,- deb kim aytdi? Men sizlarning qalbingiz va yuragingizdaman»[10],- yozilgan.

Uning xotirasiga 2010-yil 23-sentyabr kuni Dnepropetrovskdagi Dmitriy Yavornitskiy prospekti, 45b-uy manzilida yodgorlik burchagi o‘rnatilgan(Sulton Raxmonov 1979-2003 yillarda bu uyda yashagan)[11].

Sultonning vafotidan so‘ng, uning sharafiga, shaxsan Moskva shahar meri Yuriy Lujkov tomonidan «Dnepropetrovsk shaxrining faxriy fuqarosi» unvoni berilgan. Bundan tashqari, Aleksandr Petrovskiy «Birdamlik» Xalqaro xayriya jamg‘armasi tomonidan ketma-ket yillar davomida Sulton Raxmonovni xotirlash kechasi o‘tkazib kelinmoqda. 2020-yil yozda sulton Raxmonovning do‘stlari, hamkasblari va yaqinlari Moskvada 1980-yil o‘tgan XXII Olimpiya o‘yinlaridagi g‘alabaning 40 yilligini nishonlaganlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Sulton Saburovich Raxmonov ham sportchi, ham inson sifatida SSSR tarkibidagi barcha respublika xalqlarining mehr-muhabbatini qozongan O‘zbekiston farzandidir. Sulton o‘z sport faoliyatida qo‘lga kiritgan yutuqlari va sovrinlari bilan O‘zbekiston SSR sportida muhim o‘rin egallagan. Sultonning xalqaro musobaqalarda SSSR sharafiga himoya qilganligi, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritganida SSSR madhiyasi yangraganligi, SSSR bayrog‘i baland ko‘tarilganligi, o‘sha vaqtlar O‘zbekistonning sovet hokimiyati tasarrufida bo‘lganligi sabablidir. Shunday holatlarda ham, O‘zbekiston SSRlik mahalliy aholi, sportchini o‘z Vatandoshi sifatida bilib, uni bor vujudi bilan qo‘llab-quvvatlaganlar.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Султан Рахманов на Олимпийских играх (<http://www.sports-reference.com/olympics/athletes/ra/sultan-rakhmanov-1.html>)
2. Архивная копия (<https://web.archive.org/web/20080819005114>)
3. <http://www.sports-reference.com/olympics/athletes/ra/sultan-rakhmanov-1.html>) от 19 августа 2008 наWayback Machine (англ.)
4. 4)Рахманов Султан Сабурович (<https://infosport.ru/person/tyajelaya-atletika/rahmanov-sultanbai>)
5. У всемирно известного днепрянина на могиле нет даты смерти (<https://nashemisto.dp.ua/2018/08/13/u-vsemirno-izvestnogo-dnepryanina-na-mogilenet-daty-smerti/>)
6. ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Рахманов,_Султан_Сабурович&oldid=128226467 (31.01.2023г.)
7. <https://dzen.ru/media/dvigenievozdrav/sultan-rahmanov-pervyi-shtangist-podniavshii-v-ryvke-200-kg-i-spasshii-jizn-leonidu-taranenko-609a932bc7250854e2284d78> (11.05.2021)

8. <https://dp.reporter.ua/articles/legendy-dnepra-sultan-rakhmanov-i-narodnye-bajjki> (11.09.2020)
9. <http://sport-calendar.ru/lichnosti-v-sporte/item/rakhmanov-sultan>
10. <https://disk-sport.com/index.php/sport/silovye-vidy/tyazhelaya-atletika/3977-olimpijskij-chempion-po-tyazheloz-atletike-sultan-rakhmanov-zhil-i-trenirovalsya-v-dneprodzerzhinske-fotoalbum-i-video> (09 сентябрь 2016,- Текст: Виктор КУЛЕНКО.)
11. [https://dni-ru.turbopages.org/спорт>Умер самый сильный человек \(7 май 2003 йил\)](https://dni-ru.turbopages.org/спорт>Умер самый сильный человек (7 май 2003 йил))

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES Special Issue

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).